



LINGVOPOETIKADA MILLAT RUHIYATI VA TIL

Topildiyeva Feruza Raximjonovna

O'zMU katta o'qituvchi:

Inogamova Nargiza Shovkatovna

O'zMU katta o'qituvchi:

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10035881>

ARTICLE INFO

Received: 16th Oktober 2023

Accepted: 23th Oktober 2023

Online: 24th Oktober 2023

KEY WORDS

Lingvopoetika, estetik ta'sir, leksik vositalar, nazm, inson hissiyotlari, semantik doira, emotsionallik, lirik qahramon.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilshunosligida dolzarb mavzulardan bo'lgan lingvopoetika, lingvokulturologiya, millat ruhiyati va til, til va madaniyat masalalari borasida fikr yuritiladi. Maqolada ijodkor yoki shoir badiiy ifodalarining estetik ta'sirini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg'unlikdagi yo'nalishi mavzusi yoritiladi. Shuningdek, maqolada Iqbol Mirzo, Farida Afro'z va Xosiyat Rustamovalarning badiiy ijod namunalaridan misollar keltirildi va tahlil qilindi, ijodkorlarning nazmda o'zlariga xos so'z tanlash va qo'llash mahoratlari bayoni berildi.

KIRISH

Keyingi yillarda lirik asar tilini lingvopoetika, lingvokulturologiya, millat ruhiyati va til, til va madaniyat borasida o'rganish ko'pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Negaki til va adabiyot hamisha bir-birini to'ldirib, uyg'unlikda taraqqiy etib kelgan. Shu bois, bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo'llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Xususan, badiiy yoki lirik matn lingvistik tadqiqida so'zning estetik ta'siri, ma'no va mazmun uyg'unligi, lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta'sirini oshiruvchi badiiy aktualashgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to'xtalish lozim bo'lib qoldi. Shu sababli ham "lingvopoetika" deb ataluvchi matn lingvistikasining mustaqil sohasi tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq tortmoqda. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradovning fikricha, lingvopoetikaning vazifasi badiiy asarda til birliklarining estetik vazifasini tadqiq etishdan iborat. Shunday qilib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida filologiyaning yangi yo'nalishi, lingvopoetika, ya'ni yozuvchi yoki shoir badiiy to'qimalarining estetik ta'sirini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg'unlikdagi yo'nalishi paydo bo'ldi, deb hisoblaydi olim.

ASOSIY QISM



Har qanday badiiy matn asosida soʻz va shu soʻzlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil boʻlgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotar ekan, ushbu maqolada Oʻzbekiston shoirlari Iqbol Mirzo, Farida Afroʻz, Xosiyat Rustamovalarning sheʼriyati misolida soʻzning badiiy asar qimmatini oshirishdagi muhim jihatlari xususida soʻz yuritiladi.

Iqbol Mirzo oʻziga xos soʻz qoʻllash uslubiga ega boʻlgan shoirlardan biri. Uning sheʼrlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlarning ijod namunalaridan ajralib turadi. Bundan bir necha yil oldin Chingiz Aytmatov Iqbol Mirzo timsolida zamonaviy oʻzbek sheʼriyati iqbolini koʻrayotganligini aytgan edi. Yillar oʻtib buyuk adibning fikrlari oʻz tasdigʻini topmoqda. Iqbol Mirzoning “Aytgil, doʻstim, nima qildik vatan uchun?”, “Uygʻonish”, “Koʻrmasam boʻlmas” kabi qator sheʼrlari xalq orasida xalqchilligi, oʻziga xosligi bilan mashhur. Iqbol Mirzo tabiatiga xos boʻlgan samimiylik, shoir taʼbiri bilan aytganda, qorakoʻz, bagʻri keng, oqibatli, mehrli, andishali xalqni yaxshi koʻrishidadir. Chunki Iqbol Mirzo: “Agar shoir oʻz asarlariga oʻxshamasa, chinakam fojia, aslida – shu...”, deydi oʻz haqida yozganlarida. Shoir ijodidagi oʻziga xoslikni taʼminlashda badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida keltiriladigan badiiy aktuallashtirish leksik vositalari, xususan, badiiy takror, koʻchimning metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish kabi maʼno turlari alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklar badiiy asarning emotsional ekspressivligini taʼminlovchi tasviriy vositalardan hisoblanadi. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

Iqbol Mirzo sheʼrlarida badiiy takrorning juda koʻp qoʻllanishini taʼkidlab oʻtish joiz.

Yulduz, kechir meni, kechir yulduzim,

Iqboling kulsa ham, baxting kulmadi.

Oʻzimga mahliyo boʻldimu, oʻzim

Koʻnglingni olishga vaqtim boʻlmadi.

“Yulduz” deb nomlangan ushbu sheʼrda distant holatdagi ot takrorining oʻzgarish bilan qoʻllanishini koʻramiz. Birinchi holatda Yulduz soʻzi undalma, ikkinchi holatda esa egalik qoʻshimchasini olgan boʻlsa-da, soʻz mazmunidan erkalash maʼnosi anglashiladi. Kechir soʻzi aynan takror boʻlib, misraning taʼsir kuchini oshirgan. Har bir takroriy qoʻllangan soʻz oʻzining yakka holda qoʻllanishiga nisbatan yangi maʼno qirralariga ega boʻladi va shu asosda uning semantik doirasi kengayadi, emotsionallik xususiyati ortadi. Bu esa badiiy takrorning nazm va nasrda naqadar muhim ekanligini koʻrsatadi. Har bir ijodkorning oʻz uslubi va oʻz tasvir doirasi, intim lirikasi qahramoni mavjud boʻlib, ijodkorning oʻziga xosligini ifoda etadi.

Bunday ijodkorlardan yana biri sevimli shoiramiz Farida Afroʻzdir. Farida Afroʻz sheʼrlarining mavzu doirasi keng va xilma-xildir. Shoir qaysi mavzuda qalam tebratmasin, ohorli ifodalar, oʻziga xos leksikadan badiiy topilmalar topa oladigan va oʻquvchini yangilikka oshno etadigan fikr ijodkoridir.. Barcha shoirlarda boʻlgani kabi Farida Afroʻz sheʼrlarida ham muhabbat mavzusi yetakchi oʻrinni egallaydi, bundan tashqari tabiat, inson ruhiy kechinmalari, hissiyotlar, maishiy mavzulardagi sheʼrlari ham talaygina. Xususan, ayol qalbi kechinmalari, inson hissiyotlari psixologiyasini, tasavvufona ohanglari, kayfiyatlar ruhiyatini, hissiy tafakkur ranglarini yaxlit uygʻunlashtirishga erishish Farida Afroʻz sheʼriyatining bosh xususiyatlaridan biridir.

Bu kunlar ham gʻanimat,



Qorlar bahor bitmoqda.

Kelsa, bahor omonat,

O'tsa, umr o'tmoqda.

Kel, ey mening mensizim,

-deya pokiza muhabbatni sog'inib, sog'inchlari to'lqinlantirayotgan qalb nolalarini faqat to'liqib, jo'shib o'qish mumkin. Shoiraning "Sochlarimni rayhon o'pdi", "Sen osiysan, men noshukur", "Nadomat" she'rlari kitobxonning mudroq tuyg'ularini uyg'ota boshlaydi, sof muhabbatni sog'inib, qadriga yetib yashashga, o'zlikni, haqiqatni anglashga chorlaydi. Beixtiyor ko'ngilga sezdirmay nozik chertib o'tadi. Farida Afro'z tuyg'ulari uyg'oqligini inson tirikligining mezoni, deb biladi, o'ziga xos betakror tashbehlar bilan ifoda etadi.

Buyuk mutafakkir Gyote: «yangi davrning eng betakror yozuvchilari biror yangi narsa yaratganlari uchun emas, balki hammaga ma'lum gapni ulargacha hech qachon aytilmaganidek, aytishga qodir bo'lganliklari uchun betakrordirlar» degan fikrni bejizga aytmagan. Xuddi shu nisbatlarni Xosiyat Rustamovaning quyidagi she'rida ham kuzatishimiz mumkin:

Yo Tangrim, Sen menga kuch ber,

Ber chidam

Xuddi daraxtlarday ko'tariyin qad.

Ichimga qor yog'ib turganida ham,

Men kulib turishim kerak hamma vaqt.

Xosiyat Rustamova uslub yaratishda o'ziga xos uslubga ega shoira. U o'z she'rlarini nafis tashbehlar bilan bezatib, ularga o'zgacha sayqal berishga astoydil harakat qiladi. Ushbu she'rda ham ijodkor lirik qahramonning ruhiy olamini noyob poetik ohang, topilmalar va tasvir vositalari bilan ifodalaydi. Shora voqea-hodisalar mohiyatini teran his qilib, chuqur anglab, eng xarakterli tomoni va xususiyatlarni mohirlik bilan she'riy misralar tarkibiga sindirishni o'ta noziklik bilan amalga oshiradi.

Qushlar daraxtlarni aylasa ham tark,

Chidar ayozlardan o'tar tippa-tik.

Shunda ham olmalar yozaverar barg,

Shunda ham gullaydi bechora o'rik.

Adabiyotimizda daraxt obrazini insonga qiyoslab talqin qilish holatlarini juda ko'p kuzatishimiz mumkin. Masalan Abdulla Jabbor "Shavkat Rahmon va Xurshid Davron she'riyatidagi bir xil poetik obrazlarning ma'no talqini" nomli maqolasida X.Davronning "Men daraxtga aylandim tunda" she'ridagi daraxt obrazi bilan Sh.Rahmonning "Subhidamda yam-yashil daraxt" deb boshlanuvchi she'ridagi daraxt obrazlariga quyidagicha xulosalar beradi: "Yuqorida daraxt obrazi insonga mengzalgan... Bu ikki shoir obrazlarining o'xshash tomoni. Biroq ikkala shoirning timsoliy qarashlarida farq bor. Chunki, bu timsollarning anglatayotgan mohiyati turlicha, bir-biridan ayri. Shavkat Rahmon daraxtga insonni irodali hamda matonatli bo'lishga chorlovchi manba deb qarasa, Xurshid Davron daraxt misolida erk, ozodlik istovchi, qora tunlardan tongga qarab ya'ni hurlikka tomon intiluvchi inson obrazini gavdalantiradi." Mana shu mavzu doirasidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Xosiyat Rustamova esa daraxt qiyofasida insonning, aynan sharq ayolining qanday yashashi kerakligini o'rgatuvchi,



taqdir va hayot zarbalaridan tanasida madori qolmagan insonga, har ko'klamda yangidan yashnashiga undovchi jasorat va matonat timsolini ko'radi:

O'rgat toshlarga ham gapiray mayin,
Ayolman! Xudoyim, keltirmayin shak.
Men ham daraxtlarday gullayverayin
Men ham daraxtlardek yozayin kurtak.

Ayol bu ona, yaratuvchi, buyuk xilqat egasi. Uning qalbi nozik va shu noziklik qa'rida buyuklik mujassamdir. Ayol qalbining butun go'zalligini ayolgina yaxshi his qila oladi. Qisqa qilib aytganda, ushbu she'rda adabiyotshunos Abdug'affor Rasulov ta'biricha "...shoira zo'riqmasdan, chiranmasdan oddiy so'zlar orqali katta hayotiy falsafani ifodalab qo'ygan".

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, badiiy matnning lingvopoetik tahlili shu tilning poetik imkoniyatlarini ochishga, mualliflarlar tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. Badiiy aktuallashgan leksik vositalar badiiy asar tilini boyitishda, ifodaning obrazlilikini ta'minlashda, ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shoir va shoirlarning ijod namunalarida o'z aksini topgan.

References:

1. Afro'z, F. (1995). Qalbidan o'tgan so'zlar. Tashkent: Sharq nashriyoti.
2. Mirzo, I. (2000). O'ngacha. Tashkent: Gafur G'ulom nashriyoti.
3. Rustamova, X. (2005). Men o'zim. Tashkent: Yangi asr avlodi.
4. Khakimov, A. (2010). O'zbek adabiyoti tarixi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527> Том. 11 № 5 (2023): ФИДЖЕШ
6. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533> vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254-bet
7. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106> vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet
8. A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272> vol. 1 no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet
9. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси // "Социология фанлари" (www.tadqiqot.uz/soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 5. – C. 469-473.



11. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 729-735.
12. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan- Eastern European Scientific Journal, 2018